

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 304 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана.....	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari	49
To'irov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari.....	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar	86
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	125
Abirkulova SohbiJamol	
Improving the Conceptual Framework for Modernizing the Tax System (Using the Example of Uzbekistan)	130
Bakhrom Nomazov	
Ayollarning inson kapitalini rivojlantirishda kraudfanding platformasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	136
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Evaluating the Environmental Sustainability of Uzbek Firms in the Green Economy.....	142
Nurbek Xalimjonov Ulugbek ugli	
O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanishida inson kapitalining roli	148
Eshmirzayev Faruddin Ilhomjonovich, Salimova Zaxro Sobirjon qizi	
Agroklastarlarda asosiy vositalarni modernizatsiyalash va ta'mirlash xarajatlarini tahlil qilish	155
G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich, Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, Narzullayev Nodirbek Aziz o'g'li	
Improving the Practice of Increasing the Effectiveness of Managing Innovation Processes in Commercial Banks	160
Juraev K. T.	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanish	164
Mamasoatov Dilshod Ravshanovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish va yashirin iqtisodiyotni kamaytirishda solliqlarning roli va ahamiyati.....	169
Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o'g'li, Rizayev Xabib Abduraufovich, Namazov Sa'dulla Namozovich	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tishning joriy holati tahlili.....	175
Rahmatullayeva Dilbar Olimovna	
Buxoro viloyatida savdo xizmatlari raqobatbardoshligini baholash uslubi-yatini takomillashtirish..	181
Raxmatov Akmal Anvar o'g'li	
The Contribution of Transport in the Development of Tourism Industry (Case Study: Uzbekistan).....	187
Rofeeva Rukhshona Shavkatovna	
Tadbirkorlik tavakkalchiligini sug'urtalash tizimi.....	192
Sabirova Asal Shuhratovna	
Improving the Effective use of Funds From Taxes and Fees in Kashkadarya Region	196
Shakhzod Zokhidov	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida sanoat korxonalarida iqtisodiy salohiyatni boshqarish	202
Kadirova Shaxnoza Ilhomovna	
Yangi O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida kadrlar tayyorlash masalalari.....	207
Usmonov Baxodir Suvonqulovich	
Temir yo'l transportida innovatsion faoliyatni rivojlantirish yo'llari	211
Nasimov Shavkat Vasiyevich	
O'zbekistonda banklararo raqobat.....	219
Zunnunova Xulkar Muxtorovna	
O'zbekistonning xalqaro moliya tizimiga integratsiyasini ta'minlashni takomillashtirish	225
Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna, Kuchkarov Sanjar Baxtiyarovich	
Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari	229
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasining mohiyati.....	233
Aripov Oybek Abdullayevich, Madiyorov Shavkatbek Muxtarovich	



Aksiyadorlik jamiyatlarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy holat to'g'risida hisobot tuzishning bosqichlari.....	237
Eshonqulov Azamat Abdiraximovich	
Davlat moliyaviy nazoratining turlari va shakllari.....	241
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
Tog' turizmini rivojlantirish manfaatlarini yo'lida investitsiya resurslarini to'plash mexanizmlarini ishlab chiqish samaralari.....	245
Xidirov Alimardon Dagarovich	
The Main Role of the Teacher While Managing the Classroom and Some Aspects of Teaching English	248
Nilufar Turdiyeva	
Davlat xususiy sherikchilik faoliyatining menejment funksiyalari tizimida muvofiqlashtirishning ahamiyati	252
Suleymanov Farrux Raximjon o'g'li	
Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmlari va sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy-miqdoriy o'zgarishlar dinamikasi	256
G. Sh. Qo'ldosheva, A. J. Toshboyev	
Логистика в Азии: опыт и перспективы оптимизации	260
Каюмова Паризода	
Temir yo'l transportida yo'lovchi tashish imkoniyatlarini oshirishning zamonaviy yondoshuvlari...	266
G. I. Abdulxamidova	
Повышение эффективности использования местных налогов и сборов в Кашкадарье: международная перспектива	272
Shahzad Zokhidov	
Financial and Credit Support for Investment and Innovative Developing Activities of a Tourist Enterprise	275
Rozokov Mukhammadaziz Mansurovich	
Роль контроля качества по хранению и переработке зерна в обеспечении продовольственной безопасности Республики Узбекистан	282
Холбекова Дилобар Расулжон кизи	
O'zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalari.....	289
Gafurov Ubaydullo Vaxabovich	
Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi	296
Dilnoza Meyliyeva	
Cross Cultural Preblems in International Business Negotiations	301
Xoldarova Fariza Tuxtabayevna	



O'ZBEKISTONDA MAHALLA BOSHQARUVI TIZIMI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

ORCID: 0000-0002-3829-4556

Gafurov Ubaydullo Vaxabovich

I.f.d., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori



Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda jamoatchilik boshqaruvi va nazoratini samarali amalga oshirish mexanizmining yaratilishi, mahallaning jamiyatdagi roli va ahamiyatini kuchaytirish borasida amalga oshirilgan asosiy chora-tadbirlar, yangi tizimga o'tgunga qadar mahalla idorasi faoliyatidagi kamchilik va muammolar, ularning kelib chiqish sababi va oqibatlari, "mahalla beshligi" tizimidan "mahalla yettiligi" tizimiga o'tilishi sabablari, mahallalar faoliyati bilan bog'liq turli elektron platformalar va xizmatlar, mahalla yettiligi xodimlarining asosiy vazifalari bo'yicha ayrim mulohazali jihatlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: jamoatchilik boshqaruvi va nazorati, mahalla, "mahalla beshligi", "mahalla yettiligi", mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim, soliq inspektori, mahallalar faoliyatini raqamlashtirish.

Abstract: The article describes the creation of a mechanism for the effective implementation of public administration and control in Uzbekistan, the main measures implemented to strengthen the role and importance of mahalla in society, shortcomings and problems in the activities of mahalla management before the transition to a new system, their causes and consequences, the "mahalla five" system, the reasons for the transition to the "mahalla seven" system, various electronic platforms and services related to the activities of mahallas, and also describes some critical aspects of the main tasks of the mahalla seven workers.

Key words: community management and control, mahalla, "mahalla five", "mahalla seven", chairman of the mahalla, assistant khokim, women's activist, youth leader, prevention inspector, social worker, tax inspector, digitalization of mahalla activities.

Аннотация: В статье описано создание механизма эффективного осуществления государственного управления и контроля в Узбекистане, основные меры, реализуемые по усилению роли и значения махалли в обществе, недостатки и проблемы в деятельности махаллинского управления до перехода к новой системе, их причины и последствия, система "махаллинской пятерки", причины перехода на систему "махаллинской семерки", различные электронные платформы и сервисы, связанные с деятельностью махаллей, а также описаны некоторые критические аспекты основных задач работников махаллиной семерки.

Ключевые слова: управление и контроль сообщества, махалля, "махаллинская пятерка", "махаллинская семерка", председатель махалли, помощник хокима, женская активистка, молодежный лидер, инспектор по профилактике, социальный работник, налоговый инспектор, цифровизация деятельности махалли.

KIRISH

Jamiyatning barqaror rivojlanishi fuqarolarning ajdodlardan avlodlarga o'tib boruvchi milliy hamda umuminsoniy qadriyatlariga nisbatan hurmatli va ongli munosabatda bo'lishlari, davlat tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilab berilgan tartib-qoidalarga so'zsiz rioya qilishlarini taqozo etadi. Har bir shaxsning ijtimoiy faoliyati, uning kundalik xatti-harakatini markazlashgan holda doimiy nazorat qilish, bir tomondan, boshqaruv samaradorligini keskin pasaytirib yuborsa, boshqa tomondan esa, imkon darajasidan tashqarida hisoblanadi. Shunga ko'ra, bu o'rinda jamoatchilik boshqaruvi va nazorati samarali vosita sifatida maydonga chiqadi.

O'zbekistonda jamoatchilik boshqaruvi va nazoratini samarali amalga oshirish mexanizmining muhim bo'g'ini sifatida markazida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari maydonga chiqadi. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining tarixan keng tarqalgan shakli mahalla idorasi hisoblanadi. Shunga ko'ra, mamalakatda "kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoyilini amalga oshirish ko'p jihatdan mahallaning jamiyatdagi roli va ahamiyatini kuchaytirishni nazarda tutadi.



O'zbekistonda mahalla instituti tarixan uzoq davrlardan mavjud bo'lsada, uning o'z hududidagi fuqarolarning muammolarini to'liq anglash hamda o'z vaqtida bartaraf etish, ularning istak-ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish borasidagi xalqchil, demokratik va samarali tizim sifatidagi shakli mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichi bilan bog'liq. Mazkur institutning "mahalla beshligi", "mahalla yettligi" tizimlari bugungi kunda ijtimoiy hayotning turli holatlari va sharoitlarida murakkab sinovdan o'tib, izchil ravishda takomillashtirib borilmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba orttiramiz, yana o'zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi tahlikalarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo'limiz – mahalla, mahalla, mahalla va bir marta mahalla. Mahalla tizimi obro'yini qancha ko'tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo'ladi" [6], deya ta'kidladi.

Shunga ko'ra, O'zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda mahalla boshqaruvi tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalarini o'rganishga qaratilgan ilmiy ishlarda tadqiqot predmeti diapazonining kengligi, savollarning xilma-xilligi kuzatiladi.

Ernazarov (2020) jahonning rivojlangan boshqa mamlakatlarida aholining mahalla bo'lib yashash tarzi juda kam uchrashi, mahalla insonni jamiyat bilan birga yashashga o'rgatadigan, shu ruhda tarbiyalaydigan birlamchi, o'xshashi yo'q va beqiyos makon vazifasini bajarishini ta'kidlaydi [9].

Xolmirzayev (2023) ijtimoiy taraqqiyotni ijtimoiy institutlarsiz tasavvur qilib bo'lmazligi, aynan ijtimoiy institutlar insonni jamoaviy tabiatini va ijtimoiylashuvini mahsuli sifatida shakllangan va rivojlanib kelgani, mana shunday ijtimoiy institutlarning eng qadimiysi mahalla instituti hisoblanishi, mazkur institut o'zbek xalqi tarixiy taraqqiyotini uzviy qismi bo'lib kelganini bildirib o'tgan [6].

Raximov (2020) O'zbekistonda mahalla institutini modernizatsiya qilishning dolzarb muammolari, o'z o'zini boshqarish organlari faoliyatini tahlil etishning zamonaviy yondashuvlari, shuningdek, mustaqillik yillarida ko'p millatli, konfessiyali mahallalar faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari haqida to'xtalib o'tadi [5].

Sadullayev (2023) Yangi O'zbekistonda mahalla boshqaruvida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilib, mahalla tizimiga yangidan joriy etilgan hokim o'rinbosari, faol xotin-qizlar, yoshlar yetakchisi lavozimlari haqida ma'lumot beradi. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy etilgan "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari" axborot tizimining faoliyatini alohida o'rganadi [10].

Shamsiddinov (2021) kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mahallalar va oilalar iqtisodiy-moliyaviy hayotida muhim ahamiyatga egaligi, mahalla, oilalar ham tadbirkorlar haqida pozitiv fikrlarni uyg'otib, ularni ma'naviy ruhiy qo'llab-quvvatlashi zarurligi, tadbirkorlarga turli to'siqlar uyg'otmasdan, ularni mahalla hayotiga jalb etish boshqarish mahoratini talab qilishini ta'kidlaydi [7].

Inagamova (2022) mamlakatimizda qonun ustuvorligi prinsipini yanada rivojlantirishda mahallaning "faol" modelini joriy etish, unda aholi muammolarini bevosita hal qilish hamda hududni rivojlantirish uchun zarur resurs va imkoniyatlar bilan ta'minlashning tashkiliy-huquqiy masalalarini yoritgan [3].

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI


O'zbekistonda jamoatchilik boshqaruvi va nazorati konsepsiyasi jamoatchilikning davlat boshqaruvi jarayonlariga keng ishtirokini ta'minlashga qaratilgan. Bu turli xil mexanizmlar va vositalar orqali amalga oshiriladi (1-rasm).

Ushbu vositalar orqali O'zbekistonda jamoatchilik boshqaruvi va nazorati samarali amalga oshirilib, davlat va jamoatchilik o'rtasida hamkorlik va ishonch muhitini yaratishga intilinyapti.

O'zbekistonda mahallaning jamiyatdagi roli va ahamiyatini kuchaytirish bo'yicha bir qator islohotlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlar mahallalarning davlat boshqaruvida, ijtimoiy hayotda va iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Bu borada amalga oshirilgan asosiy ishlar va tadbirlarni quyidagi rasm orqali ifodalash mumkin (2-rasm).

Yuqorida keltirib o'tilgan tadbirlar va islohotlar natijasida mahallaning jamiyatdagi roli va ahamiyatini kuchaytirish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki va ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda uzoq yillar davomida faoliyat yuritib kelayotgan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi hisoblanuvchi mahalla fuqarolar yig'ini (yoki oddiy tilda aytganda mahalla)larning mazmun-mohiyati ham zamon talablari ostida o'zgarib bormoqda. Aholining aksariyat qismi o'z hayotiy faoliyatida qaysidir bir sabab bilan (masalan, ko'p hollarda muayyan mahalla hududida istiqomat qilishi to'g'risida ma'lumotnoma olish zarurati bilan) albatta mahalla idorasiga murojaat qilgan. Lekin, ko'p hollarda mahalla idorasi faqat ma'lumotnoma beruvchi rasmiy tashkilotga aylanib qolgan edi.



1-rasm: O'zbekistonda jamoatchilik boshqaruvi va nazoratini samarali amalga oshirish mexanizmi¹

Qonunchilik islohotlari:	- Mahalla va oila masalalari bo'yicha yangi qonun va qarorlar qabul qilindi. - Mahalla faoliyatining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik asoslari mustahkamlandi.
Institutsional rivojlanish:	- Mahalla va oila instituti rivojlantirildi. - Mahalla faoliyatini muvofiqlashtirish uchun maxsus tashkilotlar va organlar tuzildi. - Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash markazlari tashkil qilindi.
Fuqarolar ishtiroki va jamoatchilik nazorati:	- Mahalla faoliyatida fuqarolar ishtirokini oshirish bo'yicha tadbirlar amalga oshirildi. - Mahalla faoliyatiga jamoatchilik nazorati kiritildi va bu boradagi mexanizmlar rivojlantirildi.
Ijtimoiy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlash:	- Mahallalarning ijtimoiy infratuzilmasini yaxshilashga yo'naltirilgan dasturlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. - Mahalla aholisini ish bilan ta'minlash va ishbilarmonlik faoliyatini rivojlantirish uchun loyihalar qo'llab-quvvatlandi.
Ta'lim va targ'ibot ishlari:	- Mahalla faollari va rahbarlari uchun maxsus o'quv kurslari va malaka oshirish dasturlari tashkil qilindi. - Mahalla ahamiyati va rolini oshirish bo'yicha ommaviy axborot vositalarida targ'ibot ishlari olib borildi.
Mahalla madaniy va an'anaviy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish:	- Mahallalarda milliy madaniyat va an'analarni saqlashga qaratilgan tadbirlar tashkil etildi. - Mahalla jamoalarining madaniy hayotini boyitishga qaratilgan dasturlar amalga oshirildi.

2-rasm: O'zbekistonda mahallaning jamiyatdagi roli va ahamiyatini kuchaytirish borasida amalga oshirilgan asosiy chora-tadbirlar²

¹ Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.

² Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.



Umuman olganda, uzoq yillar davomida, yangi tizimga o'tgunga qadar, mahalla idorasining faoliyatida ko'zga tashlangan quyidagi kamchilik va muammolarni ajratib ko'rsatish mumkin (1-javdal).

1-javdal: Yangi tizimga o'tgunga qadar mahalla idorasi faoliyatidagi kamchilik va muammolar, ularning kelib chiqish sababi va oqibatlar³

Kamchilik va muammo	Kelib chiqish sababi va oqibatlar
Mahalla ish faoliyatda byurokratiyaning kuchiligi, ko'plab chalkashliklarning yuzaga kelishi.	Mahalla idoralari faoliyatida ham qog'ozbozlik, tegishli kompetensiyadagi mutaxassislarning yetishmasligi tufayli sansalorlik holatlari mavjud bo'lib, buning ta'sirida qaror qabul qilish jarayonining sekinlashuvi va boshqaruv samaradorligining pasayishi ro'y beradi.
Mahalla idorasi faoliyati bilan bog'liq yangiliklar va o'zgarishlar yuzasidan aholi o'rtasida axborot tarqatishning sustligi.	Aholi uchun muhim bo'lgan mahalla idorasi faoliyatidagi o'zgarishlar, hududdagi yangiliklar yuzasidan axborot o'z vaqtida va manzilli ravishda tarqatilmagligi mahalla boshqaruvining samaradorligi hamda qarorlarning ta'sirchanligini pasaytirib yuboradi.
Mahalla idoralari boshqaruvchi xodimlarining javobgarlik va mas'uliyat darajasining pastligi.	Ko'p hollarda mahalla idorasi faollarining javobgarlik va mas'uliyat darajasining pastligi oqibatida ularning o'z oldilariga qo'yilgan vazifa va majburiyatlarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlanmasligiga olib kelar edi.
Mahalla idoralari zimmasiga yuklangan vazifa va majburiyatlarni aniq hisobining yuritilmagligi hamda ishlarning xodimlar o'rtasida adolatli taqsimlanmasligi.	Mahalla idorasidagi xodimlar sonining kamligi, muammoli masalalarning esa tobora ko'payib borishi ularning barchasiga ham e'tibor qaratish imkonini cheklab, ko'p hollarda u yoki bu xodimning ish bilan ortiqcha band bo'lishiga olib kelardi.
Mahalla faollari ish faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan yetarli darajada foydalanilmaslik.	Yaqin vaqtlargacha mahalla idoralari faoliyati zamonaviy texnologiyalar eng past darajada qo'llanilgan sohalardan biri bo'lib kelgan. Barcha ishlarning qo'l mehnati va qog'oz hujjatlari vositasida tashkil etilishi ish samaradorligini sezilarli darajada pasaytirib yuboradi.
Jamoatchilik fikrini to'liq inobatga olish imkonining pastligi.	Axborot tarqatish va almashuvining sustligi, zamonaviy ijtimoiy tarmoqlar va muloqot texnologiyalarining rivojlanmaganligi o'z navbatida mahalladagi barcha a'zolarining fikrini va ehtiyojlarini inobatga olishning yetarli darajada bo'lmagligini keltirib chiqaradi.
Boshqaruv qarorlari qabul qilish hamda muammolarni hal etish jarayonlarining sekinligi.	Mahalla boshqaruv jarayoni ustidan jamoat nazoratining yetarli emasligi, mahalla doirasidagi muammoli masalalarni hal etish bo'yicha xodimlar ixtisoslashuvining yo'qligi, muammolarni hal etishda resurslarning taqchilligi mazkur holatlar yechimiga olib keluvchi jarayonlar tezligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bu kamchiliklar mahallaning oldingi tizimini o'zgarishga muhtoj qilishi va yangilanishga bo'lgan ehtiyojni oshirishi mumkin.

Mahalla doirasida e'tibor qaratilishi, hisobga olinishi va bartaraf etish choralari ko'rilishi lozim bo'lgan ishlar, muammolarni mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda guruhlash hamda har bir alohida yo'nalish bo'yicha tegishli ixtisoslashgan mutaxassis-mas'ul xodimni belgilab qo'yish amaliyotiga o'tildi. Bu dastlab "mahalla beshligi" ko'rinishida tashkil etildi. "Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat "beshlik tizimi" tashkil etildi. Lekin ularning o'zaro muvofiq ishlashida kamchiliklar, juda ko'p takrorlanishlar bor. Ijtimoiy maqsaddagi mablag'lar ba'zan samarasiz yo'naltirilyapti. Ehtiyojmand aholining masalasini hal qilish viloyat va respublika idorasiga bog'lanib qolgan. Mahalla xodimlari faoliyatini baholash mezonini yo'q. Ularning ko'p vaqti "qog'oz to'ldirish" va majlislariga ketyapti", dedi prezident" [8].

Keyinroq mazkur tizimning qo'shimcha imkoniyatlarini aniqlash asosida uning samaradorligini yanada oshirish maqsadida davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan "mahalla yettiligi" tizimiga o'tildi. Bunga asosiy sabab mazkur jarayondagi tashkiliy omillar hisoblanadi. Ya'ni, mahalla tizimidagi yetakchi yo'nalishlarni ajratib olishda ularning hayotiy muhimligi darajasi, tizimdagi asosiy masalalarni qamrab olishi kabi jihatlarga yanada ko'proq e'tibor qaratish taqozo etildi.

Mahalla boshqaruv xodimlari vakolatlari va vazifalari tahlil qilinib, ular tarkibiga mahalla darajasida hal etilishi samarali amalga oshuvchi bir qator masalalar kiritilmaganligi aniqlandi. Jumladan, mahalla hududidagi og'ir ahvolga tushib qolgan shaxslar va oilalarni aniqlash, ularning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda kom-

3 Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.



pleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmat ko'rsatish, mahalladagi tadbirkorlarga soliq xizmatlarini ko'rsatish, hududning soliq bazasini kengaytirish, soliqlarni undirish va mahalla budjetining daromadini shakllantirish kabi masalalar shular jumlasidandir. Shunga ko'ra, Prezidentimizning bevosita taklifiga ko'ra, mahallalarda ijtimoiy xodim va soliq inspektori lavozimlari tashkil etilib, "Mahallalarning boshqaruv xodimlari soni soliqchi va ijtimoiy xodim qo'shilishi hisobiga 5 tadan 7 taga ko'paydi. ...Ta'kidlanishicha, ehtiyojmand aholini ro'yxatga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar, tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o'zida jamoaviy hal qilinadi. Shuningdek, Bandlik, Tadbirkorlik va Kasanachilik jamg'armalari mablag'lari har bir mahallaga taqsimlab beriladi" [8]. Ya'ni, bundan ko'rinadiki, mahalla boshqaruvi xodimlarining vakolat va vazifalarining kengaytirilishi "mahalla beshligi" tizimidan "mahalla yettiligi" tizimiga o'tilishiga sabab bo'ldi.

Mahalla boshqaruvi faoliyatidagi kengayib borayotgan vakolat va vazifalarning o'z vaqtida va to'liq bajarilishi, tezkorlik va shaffoflikni ta'minlashning eng samarali yechimi sifatida tizimning to'liq raqamlashtirilishi belgilab berildi. Hozirda O'zbekistonda mahallalar faoliyati bilan bog'liq turli elektron platformalar va xizmatlar mavjud. Ulardan ba'zi birlarini quyidagi jadval orqali keltirish mumkin (2-jadval).

2-jadval: O'zbekistonda mahallalar faoliyati bilan bog'liq turli elektron platformalar va xizmatlar⁴

Elektron platformalar	Qisqacha tavsifi
"E-Mahalla"	Bu platforma mahallalar faoliyatini yaxshilash va ularning faoliyatlarini raqamlashtirish uchun ishlab chiqilgan. Platforma orqali mahalla aholisi o'z muammolarini mahalla rahbariyatiga yetkazishi, turli xizmatlardan foydalanishi mumkin.
"Mahalla" mobil ilovasi	Bu mobil ilova mahalla a'zolariga o'z hududidagi yangiliklar, tadbirlar va xizmatlar haqida ma'lumot olish imkonini beradi.
"Onlayn Mahalla" elektron platformasi	Mahallabay ishlash markazi va mahalla fuqarolar yig'ini faoliyatini o'zaro bog'liq holda raqamlashtirishni nazarda tutuvchi elektron platforma
Davlat xizmatlari portali (my.gov.uz)	Ushbu portal orqali fuqarolar turli davlat xizmatlaridan, jumladan mahalla bilan bog'liq xizmatlardan foydalanishlari mumkin.
Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali	Bu portal orqali fuqarolar mahalla bilan bog'liq turli interaktiv xizmatlardan foydalanishlari mumkin.
"Smart mahalla" mobil axborot tizimi	Mahalla raisi, mahalla demografik ma'lumotlari va birlashtirilgan sektor rahbari, shuningdek mahalla idorasi va sektor shtabining gejoylashuvi haqidagi ma'lumotlar, sektor faoliyatiga baho berish; mahalla profilaktika inspektori haqidagi asosiy ma'lumotlar va huquq-tartibot maskanining gejoylashuvi, shuningdek profilaktika inspektoriga baho berish; hududlar kesimi va davr oralig'i bo'yicha sodir etilgan yo'l-transport hodisalari, ma'muriy huquqbuzarliklar va jinoyatlar to'g'risida va boshqa ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Ushbu platformalar mahalla boshqaruvi tizimini to'liq raqamlashtirish uchun tegishli shart-sharoitlar hamda mahalla aholisiga qulay va tezkor xizmatlardan foydalanish imkonini yaratib beradi.

"Mahalla yettiligi" tizimida asosiy va markaziy bo'g'in sifatida mahalla raisining vakolatlari kengaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki, muayyan mahalla hududidagi aholining munosib turmush darajasini ta'minlash hamda mavjud muammolarini hal etish ishlarini samarali tashkil etilishiga umumiy rahbarlikni mahalla raisi olib boradi. "Mahalla raisi" "mahalla yettiligi" faoliyatini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi, xodimlarga yuklangan vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi, majlislar chaqiradi va o'tkazadi, "Mahalla yettiligi" nomidan chiqadigan hujjatlarni imzolaydi" [8]. "Mahalla yettiligi"ga fuqarolar yig'ini raisi rahbarlik qiladi. Qolgan a'zolar o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiradi [8].

Prezident qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha "yo'l xaritasi"ga ko'ra, "Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi qonunga rais lavozimiga nomzodlar oliy ma'lumotga ega bo'lishi shartligiga oid talab kiritiladi. "...Qonunga ko'ra, raislikka nomzodlarni tegishli hududda doimiy yashovchi fuqarolarning fikrini inobatga olgan holda ishchi guruh tanlaydi. Nomzodlar, avvalo, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, qoida tariqasida oliy ma'lumotli, bevosita saylovga qadar kamida besh yil tegishli hududda doimiy yashayotgan bo'lishi lozim" [8].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.06.2021-yildagi "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 380-son qarori va "Fuqarolar yig'ini huzuridagi jamoatchilik tuzilmalari to'g'risida"gi namunaviy Nizomga har bir fuqarolar yig'ini huzurida mahalla raisi rahbarligida "mahalla yettiligi" tashkil qilish, uning funksiyalari, vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini belgilash bo'yicha qo'shimchalar kiritildi. Xususan, "mahalla yettiligi"ning maqsadi – mahal-

4 Muallif ishlanmasi asosida tuzilgan.



laning ichki resurslarini aniqlash hamda ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish uchun safarbar etishdan iboratligi belgilab berildi [2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023-yildagi "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-209-son Farmoniga binoan mahalla yettiligi xodimlarining asosiy vazifalari belgilab berilgan [1]. Shu o'rinda, mazkur vazifalarning ahamiyati hamda muhimligini e'tirof etgan holda, ayrim mulohazali jihatlar ham mavjudligini ta'kidlash lozim.

Jumladan, mahalla raisining asosiy vazifalari qatorida "Mahalla obodligini ta'minlash, shu jumladan, "Obod mahalla", "Obod ko'cha", "Obod xonadon" mezonlarini joriy etishda aholining faol ishtiroki va mas'uliyatini oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxt va buta ko'chatlari ekish bo'yicha targ'ibot ishlarini amalga oshirish" bo'yicha mahalla raisining har oyda bir marotaba mahalladagi barcha ko'chalarda ommaviy hashar uyushtirishi, kamida 2 ta ehtiyojmand oilalarning ta'mirtalab xonadonida qo'ni-qo'shnilarni jalb etgan holda, hashar tashkil etishi belgilab berilgan [1]. Bunday yondashuv xodimlarga nisbatan vazifalar hamda ularning amalga oshirilish maromiyligini belgilab berish orqali mas'uliyatni aniq holda ifodalab qo'yish nuqtayi nazaridan to'g'ri bo'lishi mumkin. Biroq, fikrimizcha, bu o'rinda mazkur bandning asosiy amaliy ifodasini ommaviy hashar orqali belgilash noto'g'ri hisoblanadi. Chunki zamona nuqtayi nazaridan hasharning mazmuni va tabiati o'zgargan. Hashar – bu sodda ko'rinishdagi, yuqori malaka talab qilmaydigan, ko'proq qo'l va jismoniy kuch sarfiga asoslangan ishlarni bajarish jarayoni. Bugungi kunda aksariyat ishlar mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Hasharda ishtirok etuvchilarning yosh, bilim, malaka, jins, kasb, xarakter, jamiyatdagi mavqe jihatidan tarkibi juda xilma xil hisoblanadi. Mazkur tarkib uchun mos keladigan hamda muayyan vaqt davomida bajariluvchi ishning o'zini topish juda murakkab hisoblanadi. Shuningdek, daraxt va buta ko'chatlari ekish ishlarining ham muayyan mavsumda amalga oshirilishini ham nazarda tutish lozim.

"Mahallada faoliyat yurituvchi hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika va soliq inspektorlari, ijtimoiy xodim faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, mahallani har tomonlama rivojlantirishda ular imkoniyatlaridan samarali foydalanish" bandi bo'yicha har haftada mahalladagi hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika va soliq inspektorlari, ijtimoiy xodimlar hisobotini eshitadi va ularni har biri har oyda kamida 10 tadan muammoli masalalarni hal etishini nazoratga olishi belgilab berilgan [1].

Fikrimizcha, mahalla faollari mehnat faoliyati natijadorligini har oyda kamida 10 tadan muammoli masalalarni hal etilishi orqali belgilash ma'lum darajada munozarali hisoblanadi. Hal etilayotgan muammoning dolzarbligi va chuqurligi, uni hal etishning to'g'riligi va asosiligi kabi jihatlar faoliyatga baho berishni qiyinlashtiradi. Faollar tomonidan hal etilgan muammolarning har oylik hisoboti uchun "zaxira" tayyorlashga rag'bat hosil qiladi.

Xuddi shu kabi hokim yordamchisining asosiy vazifalari qatorida belgilangan "doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda bandligini ta'minlash choralari ko'rish" [1] bandi bo'yicha har oyda kamida 10 nafar ishsizning daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash chorasini ko'rilishi ma'lum darajada munozarli hisoblanadi. Chunki, "Kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda bandligini ta'minlash choralari"ning umumiyligi va mavhumligi mazkur hududdagi har qanday turdagi kasb-hunarga o'qitish va ishga yollash jarayonlarini hokim yordamchisining bevosita faoliyat natijasi sifatida qaralishiga olib keladi. Hokim yordamchisi tomonidan ish bilan ta'minlanuvchilarning har oylik hisoboti uchun "zaxira" tayyorlashga rag'bat hosil qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Mahalla boshqaruvidagi yangi, zamonaviy va samarali tizimni yaratishda uzoq davr mobaynida mahalla idorasi faoliyatida uchragan kamchilik va muammolar, ularning kelib chiqish sababi va oqibatlarining chuqur va tizimli tahlili asosida barcha yo'nalish va jarayonlarni qoplab olish maqsadga muvofiq.
2. Mahalla boshqaruvi xodimlarining vakolat va vazifalarini kengaytirish asosida yaratilgan "mahalla yettiligi" tizimining faoliyat samaradorligi ko'p jihatdan mahalladagi fuqarolarning mazkur tizim mazmun-mohiyatini chuqur anglashi, har bir boshqaruv xodimining vakolat va majburiyatlarini to'liq bilishi hamda ularning talab darajasida bajarilishi ustidan jamoat nazoratini o'rnatishiga bog'liq.
3. "Mahalla yettiligi" tizimining samaradorligini ta'minlovchi muhim omil – jarayonlarning to'liq raqamlashtirilishidan kutiladigan samaraga ega bo'lishning asosiy sharti har bir fuqaroning raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha savodxonlikka ega bo'lishi hisoblanadi.
4. "Mahalla yettiligi" a'zolari har biri faoliyatining vazifalarni bajarilish vaqti va me'yori bo'yicha qat'iy reglamentning belgilab qo'yilishi, bir tomondan, ular tomondan o'z vazifalariga mas'uliyatli yondashishlarini ta'minlasada, boshqa tomondan, mazkur xodimlar mehnatidagi ijodkorlik, jo'shqinlik va fidoyilikni ma'lum darajada cheklash xavfini keltirib chiqarishi mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda PF-209-son "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. – www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.06.2021-y. 380-son "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. – lex.uz/docs/5461749
3. Inagamova, M. M. (2022). Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyada qonun ustuvorligini ta'minlash va mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirishning tashkiliy-huquqiy masalalari (tahliliy statistik ma'lumotlar asosida). *Academic research in educational sciences*, 3(10), 315-321.
4. Ismatov S. "Mahalla yettiligi" fuqarolar yig'ini tuzilmasiga kiritildi. - <https://uzmahalla.uz/2024/03/26/mahalla-ettiligi-fuqarolar-yigini-tuzilmasiga-kiritildi/>
5. Raximov, I. (2020). Yangi O'zbekistonda mahalla institutining strategik bosqichlari. *Farg'ona davlat universiteti*, (5), 172-175.
6. Xolmirzayev, N. (2023). Mahalla institutining ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni. *Innovation in the modern education system*, 3(29), 286-289.
7. Shamsiddinov, B.J. (2021). Xususiy tadbirkor va ishbiarmonlar faoliyatining oila va mahalla farovonligiga ta'siri. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 452-456.
8. Elshod S. O'zbekistonda "mahalla yettiligi" tashkil etildi. Tizim esa to'liq raqamlashtiriladi. - <https://www.gazeta.uz/uz/2023/09/27/mahalla/>
9. Ernazarov, D. (2020). Mahallada jamoatchilik nazoratining tarixiy ildizlari (falsafiy-tarixiy talqin). *Arxiv nauchnix issledovaniy*.
10. Sadullayev Umidjon Shokir O'g'li. (2023). The importance of the mahalla system's reformatations in new Uzbekistan. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25–30. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue10-05>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

